

**OCHIQ OVAL TESHIGI BILAN TUG‘ILGAN CHAQAQALOQLARDA
OPERATSIYAGA KO‘RSATMALAR: MUTLOQ VA NISBIY**

Ilmiy rahbar: Safarov Alibek Komiljon o‘g‘li

Raxmatullayev Firdavs Akmalovich

Navoiy davlat universiteti Tabiiy fanlar va tibbiyot fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ochiq oval teshigi (patent foramen ovale, PFO) bilan tug‘ilgan chaqaloqlarda operatsiyaga ko‘rsatmalar tahlil qilinadi. PFO ko‘pincha fiziologik bo‘lsa-da, ayrim hollarda gemodinamik buzilishlar, gipoksemiya va yurak yetishmovchiligi bilan namoyon bo‘ladi. Mutloq ko‘rsatmalar sifatida katta shunt, og‘ir gipoksemiya va davolashga javob bermaydigan yurak yetishmovchiligi keltiriladi. Nisbiy ko‘rsatmalar individual baholashni talab qiladi.*

Kalit so‘zlar: *ochiq oval teshigi, PFO, chaqaloqlar, operatsiya, gemodinamika, gipoksemiya.*

Аннотация: *В статье рассматриваются показания к хирургическому лечению открытого овального окна (PFO) у новорождённых. В большинстве случаев PFO является физиологическим, однако при гемодинамических нарушениях может приводить к гипоксемии и сердечной недостаточности. Абсолютные показания включают значимый шунт и стойкую гипоксемию, относительные требуют индивидуального подхода.*

Ключевые слова: *открытое овальное окно, новорождённые, показания к операции, гемодинамика, гипоксемия.*

Abstract: *This article examines surgical indications for patent foramen ovale (PFO) in newborns. While PFO is often physiological, it may cause hemodynamic disturbances, hypoxemia, and heart failure in certain cases. Absolute indications include significant shunting and persistent hypoxemia, whereas relative indications require individualized assessment.*

Keywords: *patent foramen ovale, newborns, surgical indications, hemodynamics, hypoxemia.*

KIRISH

Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda uchraydigan „Tug‘ma yurak nuqsonlari“ eng muhim patologiyalardan biri hisoblanadi. Shulardan biri - ochiq oval teshigi (Patent Foramen Ovale, PFO) bo‘lib, u embrional davrda mavjud bo‘lgan fiziologik tuzilmaning tug‘ilgandan keyin yopilmay qolishi bilan xarakterlanadi. Normal holatda tug‘ruqdan keyin birinchi nafas olish

bilan o'pka qon aylanishi faollashadi va chap bo'lmachadagi bosim oshib, oval teshik yopiladi. Biroq ayrim chaqaloqlarda bu jarayon to'liq amalga oshmaydi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, PFO yangi tug'ilganlarning 25-30% ida uchraydi va ko'pchilik hollarda klinik jihatdan ahamiyatsiz bo'ladi⁶⁵. Shu bilan birga, ayrim holatlarda u gemodinamik buzilishlar, gipoksemiya va yurak yetishmovchiligi kabi asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Mazkur maqolaning maqsadi - ochiq oval teshigi bilan tug'ilgan chaqaloqlarda operatsiyaga mutloq va nisbiy ko'rsatmalarni ilmiy asosda tahlil qilishdir.

Patofiziologiya va klinik ahamiyati

Homila davrida oval teshik o'ng va chap bo'lmachalar o'rtasida qon o'tishini ta'minlaydi. Tug'ilgandan so'ng chap bo'lmachadagi bosim oshib, teshik funksional ravishda yopiladi. Agar bu jarayon buzilsa, o'ngdan chapga yoki chapdan o'ngga shunt yuzaga keladi.

Katta shunt mavjud bo'lganda:

- 1) arterial qonning kislorod bilan to'yinganligi kamayadi
- 2) yurakning o'ng bo'limlariga yuklama ortadi
- 3) o'pka qon aylanishi buziladi

Natijada gipoksemiya, sianoz va yurak yetishmovchiligi rivojlanishi mumkin⁶⁶.

Klinik belgilar

Ochiq oval teshigi bo'lgan chaqaloqlarda quyidagi belgilar kuzatilishi mumkin sianoz (lab va barmoqlarning ko'karishi) nafas qisishi, emish paytida tez charchash, tana vaznining sust ortishi, tez-tez respirator infeksiyalar

Ba'zi hollarda esa kasallik simptomsiz kechadi.

Diagnostika usullari

PFO ni aniqlashda asosiy usul - exokardiografiya hisoblanadi.

Asosiy diagnostik metodlar:

Ehokardiografiya (EKO) - strukturani aniqlash

Doppler tekshiruv - shunt yo'nalishi va hajmini baholash

Pulsoksimetriya - kislorod darajasini aniqlash

Zamonaviy klinik amaliyotda ushbu usullar kasallikning og'irlik darajasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega⁶⁷.

Operatsiyaga ko'rsatmalar

⁶⁵ American Heart Association.

Stout K.K. va boshqalar. 2018 AHA/ACC Guideline for the Management of Adults With Congenital Heart Disease. Circulation, 2019.

⁶⁶ European Society of Cardiology. Baumgartner H. va boshqalar. 2020 ESC Guidelines for the management of adult congenital heart disease. - European Heart Journal, 2021.

⁶⁷ National Institutes of Health. Patent Foramen Ovale (PFO) // NIH Clinical Overview, 2021.

Mutloq ko‘rsatmalar

Quyidagi holatlarda jarrohlik aralashuv zarur hisoblanadi:

1. Gemodinamik jihatdan ahamiyatli katta shunt

yurak bo‘lmachalarining kengayishi

yurak yetishmovchiligi belgilari

2. Og‘ir gipoksemiya ($SpO_2 < 90\%$)

konservativ davolash samarasiz bo‘lsa

3. Yurak yetishmovchiligi

dori vositalariga javob bermasa

4. Parodoksal emboliya xavfi yuqori bo‘lsa

5. Boshqa tug‘ma yurak nuqsonlari bilan birga kelishi

Bu holatlarda operatsiya kechiktirilmasligi kerak, chunki hayot uchun xavf mavjud.

Nisbiy ko‘rsatmalar

Quyidagi holatlarda operatsiya individual baholanadi

1. O‘rta darajadagi shunt

2. Takrorlanuvchi respirator kasalliklar

3. Tana vaznining sust ortishi

4. Yengil gipoksemiya

5. Nevrologik asoratlar xavfi

Bu holatlarda bemor dinamik kuzatuvda bo‘ladi va qaror individual ravishda qabul qilinadi

Operatsiya usullari

Zamonaviy tibbiyotda quyidagi usullar qo‘llaniladi:

1. Endovaskulyar yopish. kateter orqali amalga oshiriladi, kam invaziv usul, tiklanish davri qisqa.

2. Ochiq yurak operatsiyasi. murakkab holatlarda qo‘llaniladi, boshqa nuqsonlar bilan birga tuzatiladi

Mayo Clinic ma‘lumotlariga ko‘ra, endovaskulyar usul ko‘pchilik bemorlarda samarali hisoblanadi.

Operatsiyadan keyingi natijalar. Operatsiyadan so‘ng:

➤ kislorod darajasi normallasadi

➤ yurak yuklamasi kamayadi

➤ bola normal rivojlana boshlaydi

Asoratlar kam uchraydi va prognoz odatda ijobiy hisoblanadi ⁶⁸.

Muhokama

⁶⁸ World Health Organization. Congenital anomalies and newborn health, Geneva, 2022.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ochiq oval teshigi har doim ham operatsiya talab qilmaydi.

Asosiy muammo - jarrohlik amaliyoti qaysi holatda zarurligini aniqlashdir.

Mutloq ko‘rsatmalar aniq klinik belgilar bilan bog‘liq bo‘lsa, nisbiy ko‘rsatmalar individual yondashuvni talab qiladi. Shu sababli har bir bemor alohida baholanishi kerak.

XULOSA

Ochiq oval teshigi yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda keng tarqalgan holat bo‘lib, ko‘pchilik hollarda fiziologik ahamiyatga ega. Jarrohlik aralashuv faqat gemodinamik jihatdan ahamiyatli holatlarda amalga oshiriladi. Mutloq ko‘rsatmalar hayot uchun xavfli holatlar bilan bog‘liq bo‘lsa, nisbiy ko‘rsatmalar individual klinik baholash asosida aniqlanadi. Erta diagnostika va to‘g‘ri davolash strategiyasi yaxshi prognozni ta‘minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. American Heart Association. Stout K.K. va boshqalar. 2018 AHA/ACC Guideline for the Management of Adults With Congenital Heart Disease. - Circulation, 2019.
2. European Society of Cardiology. Baumgartner H. va boshqalar. 2020 ESC Guidelines for the management of adult congenital heart disease. - European Heart Journal, 2021.
3. National Institutes of Health. Patent Foramen Ovale (PFO) // NIH Clinical Overview, 2021.
4. Mayo Clinic. Patent Foramen Ovale: Diagnosis and Treatment, 2023.
5. World Health Organization. Congenital anomalies and newborn health, Geneva, 2022.
6. Moss & Adams’ Heart Disease in Infants, Children, and Adolescents. Allen H.D. va boshqalar. - 9-nashr, Philadelphia: Lippincott Williams & Wilkins, 2016.